ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLARDA NATIJALAR MUHOKAMASI

XXIV-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI

Issue - 10(2026) Available at www.uznauka.uz

BANK NIZOLARINI MEDIATSIYA ORQALI HAL ETISH: HUQUQIY ASOSLAR, XALQARO TAJRIBA VA AMALIY IMKONIYATLAR

Yoqubjonov Ma‘rufjon Odiljon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o‘qituvchisi

Elektron pochta: maruf.yokubjonov@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bank nizolarini mediatsiya yo‘li bilan hal etishning nazariy, qonunchilik va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda muqobil nizolarni hal etish nazariyasining asoschilari (F. Sander, R. Fisher va U. Yuri, K. Mur, L. Riskin) hamda mediatsiyaning amaliy samaradorligini o‘rgangan olimlar (H. Genn, K. Xodjes) qarashlari qiyosiy yoritiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni, Yevropa Ittifoqi, Italiya tajribasi, shuningdek, Singapur konvensiyasining bank nizolariga nisbatan qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolaning asosiy qismida bank nizolarining qaysi turlari mediatsiyaga yaroqli ekani, qaysilari esa mediatsiya predmeti bo‘la olmasligi asoslab beriladi. Natijada bank nizolarida mediatsiyani rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *mediatsiya, bank nizolari, muqobil nizolarni hal etish, kredit shartnomasi, moliyaviy ombudsman, sulh bitimi, bank siri, Singapur konvensiyasi.*

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLARDA NATIJALAR MUHOKAMASI

XXIV-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI

Issue - 10(2026) Available at www.uznauka.uz

РАЗРЕШЕНИЕ БАНКОВСКИХ СПОРОВ ПУТЁМ МЕДИАЦИИ: ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ, МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ

Ёкубжонов Маъруфжон Одилжон угли

Преподаватель Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции Республики Узбекистан

Электронная почта: maruf.yokubjonov@gmail.com

Аннотация. В статье анализируются теоретические, законодательные и практические аспекты разрешения банковских споров путём медиации. В исследовании в сравнительном плане освещаются взгляды основоположников теории альтернативного разрешения споров (Ф. Сандер, Р. Фишер и У. Юри, К. Мур, Л. Рискин), а также учёных, изучавших практическую эффективность медиации (Х. Генн, К. Ходжес). Рассматриваются Закон Республики Узбекистан «О медиации», опыт Европейского союза и Италии, а также возможности применения Сингапурской конвенции к банковским спорам. В основной части статьи обосновывается, какие виды банковских споров пригодны для медиации, а какие не могут быть её предметом. В результате разработаны практические предложения по развитию медиации в банковских спорах.

Ключевые слова: медиация, банковские споры, альтернативное разрешение споров, кредитный договор, финансовый омбудсмен, мировое соглашение, банковская тайна, Сингапурская конвенция.

RESOLVING BANKING DISPUTES THROUGH MEDIATION: LEGAL FRAMEWORK, INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PRACTICAL OPPORTUNITIES

Yokubjonov Marufjon Odiljon ugli

Lecturer at the Institute for Retraining and Advanced Training of Legal Personnel under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan

E-mail: maruf.yokubjonov@gmail.com

Abstract. The article analyses the theoretical, legislative and practical aspects of resolving banking disputes through mediation. The study comparatively examines the views of the founders of alternative dispute resolution theory (F. Sander, R. Fisher and W. Ury, C. Moore, L. Riskin) and of the scholars who studied the practical effectiveness of mediation (H. Genn, C. Hodges). The Law of the Republic of Uzbekistan “On Mediation”, the experience of the European Union and Italy, and the possibilities of applying the Singapore Convention to banking disputes are considered. The main part of the article substantiates which types of banking disputes are suitable for mediation and which cannot be its subject. As a

result, practical proposals for developing mediation in banking disputes are put forward.

Keywords: mediation, banking disputes, alternative dispute resolution, loan agreement, financial ombudsman, settlement agreement, bank secrecy, Singapore Convention.

KIRISH. Bank faoliyati kreditlash, omonatlar, to‘lov xizmatlari, kafolat va garov, plastik kartalar bilan operatsiyalar kabi keng ko‘lamli munosabatlarni qamrab oladi. Bunday munosabatlarning har birida tomonlar manfaatlari to‘qnashishi mumkin. An‘anaviy yechim bo‘lgan sud tartibi nizoni qonuniy hal etsa-da, uzoq davom etadi, xarajatli bo‘ladi va ko‘pincha tomonlar o‘rtasidagi uzoq muddatli ishbilarmonlik aloqasini uzib qo‘yadi. Bank uchun mijoz yo‘qotilishi, qarzdor uchun esa garov mulkidan ayrilish xavfi yuzaga keladi.

Shu sababli dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bank va moliyaviy nizolarni hal etishda mediatsiya tobora ko‘proq qo‘llanmoqda. O‘zbekistonda ham 2018-yilda “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun [1] qabul qilinib, nizolarni sudgacha va sud jarayonida kelishuv yo‘li bilan hal etishning huquqiy poydevori yaratildi. Biroq bank sohasida mediatsiyaning qaysi nizolarda, qanday shartlarda va qanday chegaralarda qo‘llanishi masalasi hamon yetarlicha tizimlashtirilmagan.

ASOSIY QISM (MUHOKAMA VA NATIJA). Muqobil nizolarni hal etish nazariyasining poydevori Garvard huquq professori Frank Sander tomonidan qo‘yilgan. U 1976-yildagi mashhur ma‘ruzasida sud bitta yagona chora bo‘lmasligi, balki nizoning xususiyatiga qarab tegishli jarayon, ya‘ni muzokara, mediatsiya, arbitraj yoki sud tanlanishi lozimligini asosladi [2]. Sanderning

fikricha, jarayonni tanlashda nizo xarakteri, tomonlar o‘rtasidagi munosabatning davomiyligi, xarajat va tezlik kabi mezonlar hisobga olinishi kerak. Bank nizolariga nisbatan bu yondashuv shuni bildiradiki, mijoz bilan uzoq muddatli hamkorlikka qiziqqan bank uchun, ayniqsa kredit restrukturizatsiyasi kabi masalalarda, mediatsiya sud jarayoniga qaraganda maqbulroq bo‘lishi mumkin.

Roger Fisher va Uilyam Yuri esa muzokaralarning “manfaatlarga asoslangan” modelini ilgari surdilar: tomonlar pozitsiyalar ustida bahslashmasdan, ularning ortidagi haqiqiy manfaatlarga e‘tibor qaratishi, ikki tomon uchun foydali variantlar ishlab chiqishi lozim [3]. Bank nizosida bu quyidagicha namoyon bo‘ladi: masalan, bank pozitsiyasi qarzni to‘liq va zudlik bilan undirish, qarzdor pozitsiyasi esa to‘lovdan ozod bo‘lish bo‘ladi, biroq asosiy manfaatlar bank uchun muammoli aktivni tiklash va xarajatni kamaytirish, qarzdor uchun esa biznesini saqlab qolish va garov mulkini yo‘qotmaslikdir. Bu manfaatlar to‘lov jadvalini o‘zgartirish orqali uyg‘unlashishi mumkin.

Kristofer Mur mediatorning roli va mediatsiya jarayonining bosqichlarini batafsil tavsiflab, mediator nizoga yechim yuklamasdan, tomonlarning o‘zaro munosabatini yaxshilashi, axborot almashinuvini ta‘minlashi va ixtiyoriy kelishuvga erishishiga ko‘maklashishi lozimligini ta‘kidlaydi [4]. Murning fikricha, muzokaralardagi to‘siqlar ko‘pincha axborot yetishmasligi, emotsional keskinlik va ishonchsizlikdan kelib chiqadi; mediator aynan shularni bartaraf etadi. Bank nizolarida mijoz uchun bank hisob-kitoblarining tushunarsizligi, bank uchun esa qarzdorning real imkoniyatlari noma‘lumligi shunday to‘siq bo‘ladi.

Mediatsiyaning amaliy qo‘llanishini tanqidiy o‘rgangan Xezel Gennning fikricha, ixtiyoriy mediatsiyaga murojaat qilish ko‘rsatkichi past bo‘lishi mumkin, biroq mediatsiyaga rozi bo‘lgan tomonlar orasida kelishuvga erishish ulushi yuqori bo‘ladi [5]. Bu, ayniqsa, bank amaliyoti uchun muhim: banklar mediatsiyaning afzalliklari haqida yetarli ma‘lumotga ega bo‘lmasa yoki unga ishonmasa, mexanizm qog‘ozda qolib ketadi. Kristofer Xodjes va uning hammualliflari esa Yevropada iste‘molchi nizolarini hal etishning muqobil tizimlarini tahlil qilib, moliyaviy sohada ixtisoslashgan, bepul yoki arzon va tezkor ombudsman tipidagi organlar iste‘molchilar uchun sudga qaraganda qulayroq ekanini ko‘rsatadilar [6].

O‘zbekistonda mediatsiyaning asosiy huquqiy manbai 2018-yil 3-iyuldagi “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun bo‘lib, u mediatsiyaning ixtiyoriylik, tomonlarning tengligi, mediatorning betarafligi va mustaqilligi, maxfiylik kabi tamoyillariga asoslanadi. Qonunda uning fuqarolik-huquqiy munosabatlardan, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan, mijoz va bank (kredit tashkilotlari) o‘rtasidagi munosabatlardan, sug‘urta shartnomasidan yuzaga keladigan munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga, mehnat va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo‘llash bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilab qo‘yilgan [1]. Mediatsiya sud ishi qo‘zg‘atilishidan oldin ham, sud jarayoni davomida ham qo‘llanishi mumkin, uning natijasi esa tomonlarning yozma kelishuvi bilan rasmiylashtiriladi.

Bank nizolari fuqarolik-huquqiy va tadbirkorlik munosabatlaridan kelib chiqqani uchun yuqoridagi qonunning qamrov doirasiga kiradi. Shuningdek,

protsessual qonunchilikda tomonlarning mediativ kelishuv tuzish huquqi mustahkamlangan. Bank faoliyatini tartibga soluvchi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun [7] bilan esa bank siri himoya qilinadi. Bu mediatsiyada alohida ahamiyatga ega, chunki bank mijoz haqidagi ma‘lumotni mediatorga faqat qonun va mijozning roziligi doirasida taqdim eta oladi, mediator esa olingan axborotni maxfiy saqlashga majbur.

Yevropa Ittifoqida 2008/52/EC-sonli Direktiva transchegaraviy fuqarolik va tijorat nizolarida mediatsiyaning sifati, maxfiyligi va kelishuvning ijro etilishini ta‘minlashga qaratilgan [8]. Iste‘molchi nizolari uchun esa 2013/11/EU-sonli Direktiva a‘zo davlatlarni sifatli, arzon va tezkor muqobil hal etish organlarini yaratishga majbur qiladi [9]. Bu ikki hujjat birgalikda bank mijozlari va banklar o‘rtasidagi nizolarda mediatsiya va ombudsman mexanizmlarining rivojlanishiga asos bo‘ldi.

Italiya ham bank nizolarida mediatsiyadan eng faol foydalanayotgan mamlakatlardan biri. 2010-yilgi 28-sonli Qonuni bank, moliyaviy va sug‘urta shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolar bo‘yicha sudga murojaatdan oldin mediatsiya jarayonidan o‘tishni majburiy qilgan [10]. Uning konstitutsiyaviy tortishuvlardan keyin qayta qabul qilingan shakli ham bank-moliya nizolarini o‘z ichiga olgan. Yevropa Adliya sudi Menini va Rampanelli ishida (C-75/16) iste‘molchi uchun sudga murojaat yo‘li yopilmasa va mediatsiya haddan tashqari xarajat yoki kechikish keltirmasa, bank nizolarida majburiy mediatsiya Yevropa Ittifoqi huquqiga zid emasligini aniqlagan [11]. Bundan tashqari, Italiyada Banca

d'Italia huzurida "Arbitro Bancario Finanziario" tizimi ishlaydi, u mijozlarning bankka nisbatan shikoyatlarini sudsiz ko'rib chiqadi.

BMTning 2018-yilgi "Mediatsiya natijasida erishilgan xalqaro kelishuvlar to'g'risida"gi Konvensiyasi (Singapur konvensiyasi) tijoriy nizolar bo'yicha mediatsiya kelishuvlarini transchegaraviy ijro etish imkonini beradi [12]. Konvensiya iste'molchi, oilaviy va mehnat nizolariga tatbiq etilmaydi. Shuning uchun u banklararo yoki xalqaro kreditlash bilan bog'liq tijoriy bank nizolarida muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, ammo oddiy fuqarolarning bank bilan nizolarida qo'llanmaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli tizimlarda mediatsiya yakka holda emas, balki ixtisoslashgan institut (ombudsman), qonunchilik rag'batlari (sudgacha tartib) va ijroni ta'minlovchi mexanizm bilan birgalikda ishlaydi.

Bank nizolarida nimalarni mediatsiya qilish mumkin. Umumiy qoida: mediatsiya tomonlar o'z xohishi bilan tasarruf eta oladigan, ya'ni dispozitiv xarakterdagi fuqarolik-huquqiy va iqtisodiy nizolar uchun yaroqli. Bank nizolarida mediatsiyaga eng mos keladigan toifalar quyidagilardir.

1. Kredit shartnomasidan kelib chiqadigan nizolar. Muddati o'tgan qarz, uni to'lash jadvali, foiz stavkasi, penya va jarimalar miqdori, muddatidan oldin undirish talabi mediatsiya uchun eng keng qamrovli sohadir. Bu yerda tomonlar kredit restrukturizatsiyasi, to'lov muddatini cho'zish, foizlarni kechirish yoki kamaytirish, penyani qisman yozib tashlash kabi yechimlarda manfaatdor. Fisher va Yurining manfaatlarga asoslangan yondashuvi aynan shu holatda eng yaxshi natija beradi [3].

2. Garov va kafillik bilan bog‘liq nizolar. Garov mulkiga undiruv qaratish tartibi, garovni baholash, garov mulkini qarzdor tomonidan ixtiyoriy sotilishi, garov predmetini almashtirish, kafilning javobgarlik hajmi masalalari mediatsiya orqali hal qilinishi mumkin. Bunday kelishuv bank uchun majburiy sotuvga qaraganda ko‘proq pul tushumini, qarzdor uchun esa mulkni arzon narxda yo‘qotmaslikni ta‘minlaydi.

3. Ipoteka nizolari. Fuqarolarning ipoteka kreditlari bo‘yicha to‘lovlardagi kechikishlari, to‘lov jadvalini qayta ko‘rib chiqish, uy-joy sotuvini kelishilgan holda amalga oshirish masalalari ijtimoiy ahamiyati sababli mediatsiya uchun ayniqsa qulaydir.

4. Bank hisobvaraqlari va omonatlar bo‘yicha nizolar. Hisobvaraqdan pul mablag‘larini noto‘g‘ri yoki asossiz yechib olish, komissiya miqdori va foydalanish shartlari, omonat foizlarini hisoblash, hisobvaraq yuritish shartlariga oid kelishmovchiliklar mediatsiya predmeti bo‘la oladi. Hisob-kitob xatolari aniq bo‘lgan hollarda baholovchi yondashuvli mediator [13] samarali hisoblanadi.

5. Plastik kartalar va to‘lov xizmatlari bo‘yicha nizolar. Ruxsatsiz operatsiyalar, kartadan noqonuniy yechib olingan mablag‘larni qaytarish, chargeback, internet-bank va mobil ilovalardagi texnik nosozliklar natijasidagi zarar kabi nizolar ko‘p sonli, nisbatan kichik summali va ommaviy bo‘lgani uchun sudga qaraganda tezkor mediatsiya yoki ombudsman mexanizmi mosroq [6]. Soxta firibgarlik holatlarida jinoiy jihat alohida ko‘rib chiqiladi, biroq bankning mijoz oldidagi fuqarolik-huquqiy javobgarligi masalasi mediatsiyada hal etilishi mumkin.

6. Bank xizmatlari sifati va iste‘molchi shikoyatlari. Noto‘g‘ri axborot berish, shartlarni yashirish, qo‘shimcha xizmatlarni (sug‘urta va h.k.) majburan yuklash, shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirish bilan bog‘liq shikoyatlar mediatsiyaning tipik predmetidir.

7. Bank va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi nizolar. Kredit liniyalari, akkreditiv, bank kafolati, lizing va faktoring shartnomalari bilan bog‘liq tijoriy nizolar, shuningdek, bank va yirik korporativ mijoz o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik munosabatlaridagi kelishmovchiliklar mediatsiya uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

8. Banklararo nizolar. Korrespondent hisobvaraqlari bo‘yicha hisob-kitoblar, to‘lov xatolari, konsorsium kreditlari ishtirokchilari o‘rtasidagi nizolar bank hamjamiyati uchun obro‘ va aloqalarni saqlash muhim bo‘lgani sababli mediatsiya uchun qulay. Xalqaro darajada bunday kelishuvlar Singapur konvensiyasi doirasida ijro etilishi mumkin [12].

9. Mehnat nizolarining moliyaviy jihatlari va boshqa ikkilamchi nizolar. Bank xodimlari bilan mehnat nizolari, shuningdek, bank va uchinchi shaxslar (sug‘urta kompaniyalari, baholash tashkilotlari) o‘rtasidagi nizolar ham umumiy tartibda mediatsiya qilinishi mumkin.

Mediatsiya predmeti bo‘la olmaydigan masalalar. Ayrim masalalar o‘z tabiatiga ko‘ra mediatsiya orqali hal etilmaydi. Ularga quyidagilar kiradi.

1. Markaziy bankning nazorat va tartibga solish vakolatiga oid qarorlari, litsenziyani bekor qilish, jarima solish. Bu yerda tomonlar tengligi yo‘q, davlat vakolatlari tasarruf qilinmaydi.

2. Firibgarlik, pul yuvish, rasmiy shaxslarning suiiste‘molligi. Mediatsiya jinoyat sodir etganlik masalasini hal qila olmaydi; faqat yetkazilgan zararni qoplash kabi fuqarolik jihatlari kelishilishi mumkin.

3. Bankrotlik (to‘lovga qobiliyatsizlik) ishlari: kreditorlar qo‘mitasi va sud nazorati ishtirok etgani sababli mediatsiya cheklangan, biroq alohida da‘volar, masalan, bitimlarni haqiqiy emas deb topish yoki kreditorlar talablari tartibi bo‘yicha kelishuv ayrim hollarda mumkin.

4. Uchinchi shaxslar va jamoat manfaatlariga daxldor masalalar: agar kelishuv shu shaxslarning huquqlarini buzsa, u yaroqsiz hisoblanadi.

5. Jamoat tartibiga zid yoki qonun bilan taqiqlangan shartlar: masalan, qonunda belgilangan eng yuqori foiz yoki iste‘molchi huquqlarini cheklovchi shartlar bo‘yicha kelishuv.

Bank nizolarida alohida e‘tibor talab qiladigan jihat bank siri va shaxsiy ma‘lumotlardir. Mediatsiya jarayoni maxfiy bo‘lsa-da, bankning axborot berish majburiyati qonunda belgilangan chegara bilan cheklanadi [7]. Shu bois mediatsiya shartnomasida maxfiylik, axborot almashinuvi tartibi va mijozning roziligi aniq ko‘rsatilishi lozim.

XULOSA. Bank nizolarida mediatsiya nazariy jihatdan asoslangan, xorijda sinovdan o‘tgan va O‘zbekiston qonunchiligida huquqiy poydevorga ega bo‘lgan samarali vositadir. Sander, Fisher va Yuri, Mur, Riskin, Genn va Xodjes kabi olimlarning qarashlari mediatsiyaning sudni to‘ldiruvchi, manfaatlarni

uyg‘unlashtiruvchi va tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikni saqlovchi mexanizm ekanini tasdiqlaydi.

Yevropa Ittifoqi, Italiya, Singapur tajribalari mediatsiya ombudsman, sudgacha tartib va kelishuv ijrosi bilan uyg‘un ishlaganda eng yuqori natija berishini ko‘rsatadi. Singapur konvensiyasi esa tijoriy bank nizolarini transchegaraviy hal etishda yangi imkoniyat ochadi.

Kredit, garov, ipoteka, hisobvaraq, plastik karta, iste‘molchi shikoyatlari, tadbirkorlik va banklararo nizolar mediatsiyaga eng mos kelsa, ommaviy-huquqiy, jinoiy va uchinchi shaxs huquqlariga daxldor masalalar mediatsiya predmeti bo‘la olmaydi. Bank sirini himoya qilish mediatsiya jarayonida alohida e‘tiborni talab qiladi.

O‘zbekistonda bank nizolarida mediatsiyani rivojlantirish uchun shartnomaviy mediatsiya bandlari, sud jarayonida mediatsiyaga kelishish, ixtisoslashgan mediatorlar va kelishuvlar ijrosining oddiy mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi O‘RQ-482-son “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni. URL: https://lex.uz/docs/-3805227

2. Sander, F. E. A. Varieties of Dispute Processing. Federal Rules Decisions. 1976; 70:111–134.

3. Fisher, R., Ury, W. Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In. Boston: Houghton Mifflin, 1981.

4. Moore, C. W. The Mediation Process: Practical Strategies for Resolving Conflict. 4th ed. San Francisco: Jossey-Bass, 2014.

5. Genn, H. Judging Civil Justice. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.

6. Hodges, C., Benöhr, I., Creutzfeldt-Mahar, N. Consumer ADR in Europe. Oxford: Hart Publishing, 2012.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi O‘RQ-580-son “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. URL: https://lex.uz

8. Directive 2008/52/EC of the European Parliament and of the Council of 21 May 2008 on certain aspects of mediation in civil and commercial matters. Official Journal of the European Union. 2008; L 136:3–8.

9. Directive 2013/11/EU of the European Parliament and of the Council of 21 May 2013 on alternative dispute resolution for consumer disputes. Official Journal of the European Union. 2013; L 165:63–79.

10. Decreto legislativo 4 marzo 2010, n. 28. Attuazione dell’articolo 60 della legge 18 giugno 2009, n. 69, in materia di mediazione finalizzata alla conciliazione delle controversie civili e commerciali. Roma, 2010.

11. Court of Justice of the European Union. Judgment of 14 June 2017, Case C-75/16, Menini and Rampanelli v Banco Popolare Società Cooperativa. URL: https://curia.europa.eu



Issue - 10(2026) Available at www.uznauka.uz

12. United Nations Convention on International Settlement Agreements Resulting from Mediation (Singapore Convention on Mediation). General Assembly Resolution 73/198 of 20 December 2018. URL: https://uncitral.un.org

13. Riskin, L. L. Understanding Mediators' Orientations, Strategies, and Techniques: A Grid for the Perplexed. Harvard Negotiation Law Review. 1996; 1:7–51.